



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
VI-QISM**

Google Scholar



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
VI-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqov, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

ISLOMIY BANK FAOLIYATI TO'G'RISIDAGI QONUNNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH: O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY INKLYUZIVLIKNING KONTSEPTUAL, METODOLOGIK VA INSTITUTIONAL ASOSLARI	12
Abdullayev Azamat Akbar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В ОРГАНИЗАЦИЯХ РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛИ НА ОСНОВЕ ОЦЕНКИ ОПЕРАТИВНОСТИ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО ЦИКЛА	17
Джуманиязова Сабина Михайловна	
PAHTA TOZALASH USKUNALARI DETALLARINING XIZMAT MUDDATINI OSHIRISH UCHUN GETEROKOMPOZIT POLIMER MATERIALLAR TARKIBINI ISHLAB CHIQUISH	22
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich	
O'ZBEKISTONDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI: TAHLIL VA NATIJALAR.....	29
Ubaydullayev Muxammadjon Abdusamad o'g'li	
Akbarov Diyorbek Ashirali o'g'li	
TRANSFORMING CORPORATE GOVERNANCE TO MEET THE CHALLENGES OF MODERN BUSINESS MODELS.....	32
F. Djalilov	
O'ZBEKISTONDA QURILISH SOHASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ULARNI BAHOLASH	41
Abdullayev Axror Jaxbarovich	
ЭКОНОМИКА ГОРОДСКОЙ МОБИЛЬНОСТИ: ПОТЕНЦИАЛ ЭЛЕКТРИФИКАЦИИ ОБЩЕСТВЕННОГО ТРАНСПОРТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	47
Махкамова Надира Саидмуратовна	
MINTAQA TUMANLARI O'RTASIDAGI INVESTITSIYA VA BANDLIK NOMUTANOSIBLIK LARI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)	55
Ergashev Sherali Erali o'g'li	
BUXORO VILOYATI IQTISODIYOTINING STRUKTURAVIY TRANSFORMATSIYASI: AGRAR MODEL DAN DIVERSIFIKATSIYALASHGAN TUZILMAGA O'TISH TENDENSIYALARI (2020-2024-YILLAR)	60
Ergashev Sherali Erali o'g'li	
IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA BANK TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY PRINSIPLARINI JORIY ETISH.....	65
Tashmatov Shuhrat Hamrayevich	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR KO'RSATISH IMKONIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	71
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
O'ZBEKISTONDA AVLODLARARO TRANSFERTLARNING NAZARIY ASOSLARI VA IQTISODIY MAZMUNI	77
Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna	
To'rayev Mirzohid Hoshim o'g'li	
SUN'IY INTELLEKTNING O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI	83
Hamidova Shahzoda Odiljanovna	



IQTISODIYOTDA SHAFFOFLIK, ISHONCH VA SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDA AUDITORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI VA ZARURLIGI.....	88
Sabirova Nodira Komil qizi	
RAQAMLI VALYUTALARNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI	95
Nabiyeva Zilola Saydulla qizi	



RAQAMLI VALYUTALARNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI

Nabiyeva Zilola Saydulla qizi
Bank-Moliya Akademiyasi tinglovchisi

Annotatsiya. So'nggi yillarda global moliya tizimida raqamli texnologiyalar, shu bilan birga, raqamli valyutalar jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. To'lov tizimlarida raqamli valyutalarning paydo bo'lishi va keng qo'llanilishi moliyaviy barqarorlik masalasini dolzarb qilib qo'ydi. Ushbu maqola raqamli valyutalarning ijobiy ta'siri, moliya tizimining samaradorligini oshirishi, shaffoflikni kuchaytirishi va moliyaviy inklyuziyani qo'llab-quvvatlashi mumkinligi, shu bilan birga, salbiy tomonlari hisoblangan banklarning an'anaviy funksiyalariga, likvidlik va kreditlash mexanizmlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi, yangi tizimli risklarni keltirib chiqarishi mumkinligini o'rganishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: raqamli valyuta, to'lov tizimi, moliyaviy barqarorlik, CBDC, stablecoin, banklar.

Abstract. In recent years, digital technologies, including digital currencies, have been developing rapidly in the global financial system. The emergence and widespread use of digital currencies in payment systems has made the issue of financial stability relevant. This article is devoted to studying the positive impact of digital currencies, which can increase the efficiency of the financial system, enhance transparency and support financial inclusion, while at the same time they can have a negative impact on the traditional functions of banks, liquidity and lending mechanisms, and create new systemic risks.

Key words: digital currency, payment system, financial stability, CBDC, stablecoin, banks.

Аннотация. В последние годы цифровые технологии, включая цифровые валюты, стремительно развиваются в глобальной финансовой системе. Появление и широкое использование цифровых валют в платежных системах сделало актуальным вопрос финансовой стабильности. Данная статья посвящена изучению позитивного влияния цифровых валют, которые могут повысить эффективность финансовой системы, усилить прозрачность и способствовать финансовой инклюзии, и в то же время могут оказывать негативное воздействие на традиционные функции банков, механизмы ликвидности и кредитования, а также создавать новые системные риски.

Ключевые слова: цифровая валюта, платежная система, финансовая стабильность, CBDC - цифровая валюта центрального банка, стейблкоин, банки.

KIRISH

Xalqaro valyuta fondining ta'rifiga ko'ra, moliyaviy barqarorlik deganda moliya tizimining iqtisodiy zarbalarni o'zlashtirish, moliyaviy vositachilik va to'lov funksiyalarini uzilishsiz bajarish qobiliyati tushuniladi. Moliyaviy barqarorlik har qanday iqtisodiyotning asosiy tayanchi bo'lib, to'lov tizimlarining ishonchligi va samaradorligi bilan chambarchas bog'liq.

Raqamli valyuta - bu elektron shaklda mavjud bo'lgan, to'lov vositasi yoki hisob birligi sifatida ishlatilishi mumkin bo'lgan qiymatning raqamli ifodasidir. Ular quyidagi turlarga bo'linadi:

- Markaziy bank raqamli valyutasi (CBDC) - markaziy bank majburiyati bo'lib, naqd pulning raqamli ekvivalenti. Ulgurji (wholesale) va chakana (retail) turlari mavjud.
- Xususiy barqaror tangalar (stablecoins) - asosiy valyuta yoki aktivlar bilan bog'langan, narx barqarorligini ta'minlashga harakat qiluvchi kriptoaktivlar.
- Markazlashmagan raqamli valyutalar (masalan, Bitcoin) - yuqori volatilligi tufayli to'lov tizimlarida kam qo'llaniladi.

Shu nuqtayi nazardan, raqamli valyutalarning joriy etilishi banklar faoliyati, pul-kredit siyosati, likvidlik boshqaruvi va iste'molchilar ishonchiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bir tomondan, raqamli to'lov vositalari tranzaksiyalarni tezlashtiradi, xarajatlarni kamaytiradi va moliyaviy moslashuvni kengaytiradi. Ikkinchi tomondan, ularning tartibga solinishi, xavfsizlik masalalari va tez foyda olish xususiyatlari moliyaviy tizim barqarorligiga xavf tug'dirishi ehtimoldan xoli emas.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida ko‘rsatib o‘tilganidek, iqtisodiyotning raqamli sektorini rivojlantirish borasida davlat tomonidan keng ko‘lamli chora-tadbirlar ko‘rilmoqda, elektron hujjat aylanishi tizimlari joriy etilmoqda, elektron to‘lovlar rivojlantirilmoqda va elektron tijorat sohasidagi normativ-huquqiy baza takomillashtirilmoqda. Axborot-texnologik platformalarda faoliyat ko‘rsatadigan raqamli iqtisodiyot jadal rivojlanmoqda, bu esa shunday platformalarning yangi modellarini yaratish zaruratini taqozo etmoqda.

Ma‘lumotlarning taqsimlangan reyestri texnologiyalari, “sun‘iy aql”, superkompyuterlar imkoniyatlaridan foydalanish, shuningdek, kripto-aktivlar bo‘yicha faoliyat jahonning ko‘plab mamlakatlarida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ma‘lumotlarning taqsimlangan reyestri texnologiyalari nafaqat iqtisodiyotning ko‘plab sektorlariga, balki davlat boshqaruvi tizimiga va boshqa jamoatchilik munosabatlariga asta-sekin joriy etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son‘li “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi yo‘l xaritasida xalqaro tajribani inobatga olgan holda elektron hukumat va raqamli iqtisodiyot sohasini rivojlantirish, ko‘rsatkichlar hisobini yuritish hamda samaradorligini baholash tartibini ishlab chiqish ko‘rsatib o‘tilganligi mamlakatimizda ham bu soha rivojlanishidagi sa‘y-harakatlarni ko‘rsatadi.

Raqamli valyutalarning moliyaviy barqarorlikka ta‘siri haqida xalqaro va mahalliy ilmiy maktablar tomonidan turli nazariy yondashuvlar keltirilgan bo‘lib, ularda raqamli valyutalarning turlari, to‘lov tizimlarida qo‘llanishi, makro va mikroiqtisodiy barqarorlikka ta‘siri bo‘yicha turlicha qarashlar ilgari surilgan.

Xalqaro maktab vakillari raqamli valyutalar bo‘yicha quyidagi fikrlarni ilgari surishgan. Akartuna, Johnson va Thornton (2022) raqamli valyutalarning afzallik va oqibatlari to‘g‘risida shunday fikr bildiradilar: ko‘p tadqiqotlar, birinchi navbatda, kriptovalyutalarning afzalliklarini ko‘rib chiqdi, mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarni esa ko‘pincha e‘tibordan chetda qoldirdi. Misol uchun, ba‘zi tadqiqotlar kriptovalyutalarning moliyaviy munosabatlarni rag‘batlantirish va transchegaraviy operatsiyalarni osonlashtirishdagi ijobiy rolini ta‘kidladi.

Choi va Kim (2024) raqamli valyutalarning kamchiliklarini quyidagicha ifodalaydilar: qiymati sezilarli darajada oshishiga qaramay, bitkoin va boshqa raqamli valyutalar ayirboshlash vositasi sifatida hali keng qo‘llanilmagan. Hisob-kitob qilish muddatining uzoqligi, qabul qilinishining cheklanganligi, murakkab soliq tizimlari hamda sezilarli darajadagi o‘zgaruvchanlik ularning keng tarqalishiga asosiy to‘siq bo‘lishi mumkin. Stabilkoinlar narxlarning o‘zgaruvchanligi muammosini bartaraf etish uchun ularning qiymatini an‘anaviy valyutalarga bog‘lash orqali ishlab chiqilgan bo‘lib, bu foydalanuvchilarga noyob imtiyozlar to‘plamini taklif qiladi va raqamli valyutalarning yanada kengroq qabul qilinishini osonlashtiradi.

Raqamli valyutalar moliyaviy barqarorlikka katta xavf tug‘diradi, deb ta‘kidlaydilar Schäfer va Read (2020). Xususan, ular banklar vositachiligiga, tezlashtirilgan bank operatsiyalariga hamda amaliyotlarni tartibga solishga ta‘sir ko‘rsatadi. Tijorat banklarining pul yaratish mexanizmi haqidagi tushunchalarni raqamli valyutalar sohasiga tatbiq etish “pul”ni endogen o‘zgaruvchiga aylantiradi.

Xalqaro valyuta fondining 2025-yildagi “Central Bank Digital Currency: Further Navigating Challenges and Risks” nomli maqolasida Markaziy bank raqamli valyutalarining (CBDC) moliyaviy barqarorlikka ta‘siri quyidagicha ta‘kidlangan:

CBDC ichki moliyaviy barqarorlikka bir necha o‘zaro bog‘liq kanallar orqali salbiy yoki ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Bular qatoriga bank mablag‘lari va kreditlashdagi o‘zgarishlar, komissiya daromadlarining yo‘qolishi, operatsion xatarlar, axborot oqimi va to‘lov tizimining barqarorligi kiradi. Ushbu ta‘sirlarning kuchi qabul qilish darajasi va mamlakat xususiyatlariga bog‘liq bo‘lsa-da, ularning amaliy ta‘siri hali ham empirik jihatdan noaniqligicha qolmoqda.

Mamlakatlar CBDCni puxta ishlab chiqish va mavjud siyosat vositalari orqali moliyaviy barqarorlik xatarlarini yumshata oladi. Ta‘sirni baholash bank balanslarini tahlil qilishdan boshlanishi hamda makromoliyaviy modellashtirish va doimiy ma‘lumotlar yig‘ish bilan takomillashtirib borilishi kerak.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

So‘nggi yillardagi raqamli valyutalarning mohiyati, afzalliklari va xavf-xatarlarining moliyaviy barqarorlikka ta‘siri nazariy jihatdan mavjud ilmiy adabiyotlar, xalqaro tajriba va markaziy banklar hisobotlari asosida o‘rganildi. Tadqiqotda qiyosiy va tizimli tahlil, shuningdek, statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

1 <https://lex.uz/docs/-5030957>



TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy innovatsiyalarning ba'zilarini moliyaviy inkluzivlikni oshirish, samaradorlikni kuchaytirish va transchegaraviy to'lovlarni yaxshilash imkoniyatini taklif etsa-da, ular moliyaviy barqarorlik uchun muayyan xavflarni ham keltirib chiqaradi. Tarixiy misollar shuni ko'rsatadiki, zaif tartibga solish va jamoatchilik ishonchining yetarli emasligi moliyaviy beqarorlik va noqonuniy moliyaviy faoliyatga olib kelishi mumkin (1-jadval).


1-jadval
Kriptoaktivlarning ta'siri va siyosiy javoblar²

Ta'sir sohasi	Tarkibi	Siyosiy javob
Makroiqtisodiy barqarorlik	Pul-kredit siyosati samaradorligi, narxlar barqarorligi, to'lov balansi	Pul suvereniteti va barqarorlikni himoya qilish; kapital oqimi o'zgaruvchanligidan himoyalash; fiskal risklarni bartaraf etish; soliqqa oshkora yondashuv
Moliyaviy barqarorlik va regulatsiya	Bank tizimi risklari, likvidlik, kreditlash, tizimli risklar	FSB tavsiyalari va SSB standartlarini qabul qilish; zarur hollarda maqsadli choralar
Boshqa (Huquqiy, tomonlar, atrof-muhit)	Huquqiy maqom, moliyaviy butunlik, bozor butunligi, ekologik risklar	Huquqiy maqomni aniqlashtirish; FATF standartlarini joriy etish; bozor butunligi muammolarini hal qilish

Moody's agentligining ta'kidlashicha, AQSh dollariga bog'langan stablecoinlarning yuqori darajada kirib borishi pul-kredit siyosati transmissiyasini zaiflashtiradi, chunki bu narxlarni belgilash va hisob-kitoblarni bozorning milliy valyutasidan tashqarida tobora ko'proq amalga oshirishga olib keladi. Shuningdek, kriptovalyuta egalari soni 2024-yilga kelib taxminan 562 million kishiga yetdi, bu 2023-yilga nisbatan 33 foizga ko'pdir. 2024-yilning sentyabr oyida jahon kripto bozorining umumiy qiymati 2,02 trillion dollarga yetdi. Bozor hajmi esa 23,04 % ga oshib, 63,69 milliard dollarga ko'tarildi.

Bozor o'sishi

2025-yil davomida stabilkoinlar bozor kapitallashuvi bo'yicha qariyb 50 foizga o'sdi. Ishlash xavfi kamroq bo'lishiga qaramay, ushbu stabilkoinlar an'anaviy moliyaviy tizim va raqamli aktivlar ekotizimlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni mustahkamlaydi va shu bilan kelajakda to'lovlar uchun keng qo'llanilishi bilan bog'liq xavflarni keltirib chiqaradi (1-rasm).



1-rasm. Stabilkoinlarning bozor kapitallashuvi³

1-rasmdagi Federal Rezerv Tizimining ma'lumotlariga qarasak, stabilkoin bozori 2025-yilda sezilarli o'sishni namoyish etdi. 2026-yil 6-aprel holatiga ko'ra, jami bozor kapitallashuvi 317 milliard dollarni tashkil etdi, bu esa 2025-yil boshidan buyon 50 foizdan ortiq o'sishni anglatadi. Bu o'sish 2025-yilning so'nggi choragi

² <https://www.imf.org/-/media/files/research/imf-and-g20/2023/imf-fsb-synthesis-paper-policies-for-crypto-assets.pdf>

³ <https://www.federalreserve.gov/econres/notes/feds-notes/stablecoins-in-2025-developments-and-financial-stability-implications-20260408.html>



va 2026-yilning birinchi choragida yuz bergan muhim voqealarga to'g'ri kelganiga qaramay kuzatildi.

Jumladan, 2025-yilda Oq uyning "Raqqamli moliyaviy texnologiyalarda Amerika yetakchiligini mustahkamlash to'g'risida"gi buyrug'i qabul qilindi. Shuningdek, 2025-yil 18-iyulda "AQSh stablekoinlari uchun milliy innovatsiyalarni boshqarish va o'rnatish to'g'risida"gi qonun (GENIUS Act) rasmiy me'yoriy-huquqiy bazani yaratuvchi hujjat sifatida imzolandi.

1-rasmda GENIUS qonuni imzolangan sana 100 ga indekslangan holda, 2022-yildan buyon bozor kapitallashuvi traektoriyasi tasvirlangan.

Xalqaro Valyuta Fondi (IMF)ning kriptovalyutaga asoslangan parallel valyuta kurslari to'g'risidagi ma'lumotlarini ko'rib chiqamiz(2-jadval).

2-jadval

Indoneziya davlati misolida 2024–2025-yillarda parallel va rasmiy kurslarning taqqoslanishi⁴.

Oy	Parallel kurs	Rasmiy kurs	Farq
2024-Yan	15,852	15,611	241
2024-Fev	16,505	15,665	840
2024-Mar	15,729	15,703	26
2024-Apr	16,274	16,1	174
2024-May	16,101	16,084	17
2024-Iyun	16,312	16,329	-17
2024-Iyul	15,831	16,262	-431
2024-Aug	15,343	15,793	-450
2024-Sen	15,605	15,341	264
2024-Okt	15,838	15,541	297
2024-Noy	16,117	15,812	305
2024-Dek	16,312	16,024	288
2025-Yan	16,412	16,262	150
2025-Fev	16,541	16,338	203
2025-Mar	16,865	16,806	59
2025-Apr	16,456	16,439	17
2025-May	16,299	16,289	10
2025-Iyun	16,232	16,285	-53
2025-Iyul	16,283	16,298	-15
2025-Aug	16,361	16,528	-167
2025-Sen	16,562	16,586	-24
2025-Okt	16,686	16,586	100

Indoneziya misolida kriptovalyuta asosidagi parallel bozor kursi bilan rasmiy kurs o'rtasidagi farq o'rtacha 0.73% ni tashkil etadi. Bu bozor samaradorligining yuqori darajasini ko'rsatadi. Mavsumiy tebranishlar kuzatilsa-da (3-chorakda salbiy farq), umumiy holatda raqqamli valyutalar Indoneziyaning moliyaviy barqarorligiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Ushbu holat rivojlanayotgan mamlakatlar uchun namunaviy bo'lishi mumkin — to'g'ri regulatsiya va bozor mexanizmlari kriptovalyutalarning valyuta kursiga ta'sirini boshqariladigan darajada ushlab turishi mumkin.

Keling, endi Argentina va Nigeriya bo'yicha Bitcoin savdo hajmi dinamikasini ko'rib chiqamiz(3-jadval).

4 <https://data.imf.org/en/datasets/IMF.STA:WPCPER>



3-jadval
Argentina va Nigeriya bo'yicha Bitcoin savdo hajmi (mln AQSH dollari)⁵

Davr	Argentina	Nigeriya
2022-Q1	3.6	0.1
2022-Q2	66.7	57.4
2022-Q3	0.5	2.8
2022-Q4	15.4	1.0
2023-Q1	1.8	13.5
2023-Q2	3.4	0.0
2023-Q3	3.8	19.2
2023-Q4	0.4	0.3
2024-Q1	0.1	2.6
2024-Q2	0.1	0.0
2024-Q3	0.1	0.0
2024-Q4	0.0	0.0
2025-Q1	0.0	0.0
2025-Q2	0.0	0.0
2025-Q3	0.0	0.1

Ikkala mamlakatda ham Bitcoin savdo hajmi eng yuqori darajada bo'lgan kripto bozorining gullagan davri 2022-yil 2-choragiga to'g'ri keladi. Biroq, 2023-yildan boshlab hajm keskin pasayib, 2024–2025-yillarda deyarli nolga tushgan (0.0–0.1 mln USD oralig'ida). Ushbu pasayishning asosiy sabablari qatoriga kripto bozorida umumiy pasayish, regulyatsiyaning kuchayishi va markaziy bank raqamli valyutalari (eNaira, raqamli peso) joriy etilishi kiradi. Hozirgi kunda ikkala mamlakatda ham Bitcoin savdo hajmining moliyaviy barqarorlikka ta'siri minimal darajada.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Rivojlanayotgan bozorlarda kriptovalyutalarni qabul qilish moliyaviy inklyuzivlikni oshirish, raqamli to'lov yechimlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish va beqaror mahalliy valyutalarga muqobil variantlarni taqdim etish orqali moliyaviy tizimlarni o'zgartirish imkoniyatiga ega. Biroq, uning moliyaviy barqarorlikka ta'siri murakkabligicha qolmoqda, chunki bozor o'zgaruvchanligi, tartibga soluvchi bo'shliqlar va xavfsizlik xatarlari jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Kriptovalyutalar inflyatsiyaga qarshi himoya vositasi bo'lib xizmat qilishi va transchegaraviy operatsiyalarni amalga oshirish imkonini berishi mumkin bo'lsa-da, ularning tartibga solinmagan tabiati to'g'ri boshqarilmasa, moliyaviy beqarorlikka olib kelishi mumkin. Rivojlanayotgan bozorlar xavflarni yumshatish bilan birga foydani maksimal darajada oshirish uchun muvozanatli me'yoriy-huquqiy bazani qabul qilishi, moliyaviy savodxonlikni mustahkamlashi va texnologik innovatsiyalardan foydalanishi kerak. Yaxshi tartibga solingan kriptoalyuta ekotizimi raqamli moliyaviy tizimlarga ishonchni kuchaytirish bilan birga iqtisodiy o'sish va barqarorlikni qo'llab-quvvatlashi mumkin.

Rivojlangan davlatlar, masalan, Indoneziya misolida quyidagicha taklifni ilgari surish mumkin. CBDC - Markaziy bank raqamli valyutalari to'g'ridan-to'g'ri markaziy bank tomonidan aholiga emas, balki tijorat banklari orqali tarqatilishi kerak. Bu banklarning moliyaviy vositachilik rolini saqlab qoladi va depozitlarning ommaviy ravishda CBDCga o'tib ketishi, ya'ni "disintermediation" xavfini kamaytiradi. Yevropa Markaziy banki tajribasiga ko'ra, har bir foydalanuvchi uchun CBDC - Markaziy bank raqamli valyutalarini saqlash limiti belgilanishi lozim (masalan, 3000–4000 yevro oralig'ida). Bu depozitlarning ommaviy chiqib ketishining oldini oladi va banklarning depozit bazasini himoya qiladi.

Barqaror tangalar (stablecoin) bo'yicha esa, stablecoin emitentlari muomaladagi tangalar qiymatiga 1:1 nisbatda yuqori likvidli va xavfsiz aktivlar - davlat qimmatli qog'ozlari hamda markaziy bank depozitlarida zaxira

5 <https://data.imf.org/en/datasets/IMF.STA:WPCPER>



saqlashlari, shuningdek, stablecoin narxi bog'langan valyutaga nisbatan 2% dan ortiq og'sa, konvertatsiya vaqtincha to'xtatilishi yoki avtomatik limitlar joriy qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Kriptoaktivlardan olinadigan daromadlarga aniq va tushunarli soliq rejimi joriy etilishi kerak. Bu noqonuniy kapital oqimlarini kamaytiradi va fiskal barqarorlikni mustahkamlaydi.

Tizimli risk indeksini (SRI) joriy qilish zarur. Agar bu indeks belgilangan chegaradan oshsa (masalan, 0.25), avtomatik ravishda himoya choralari (CBDC limitini pasaytirish, stablecoin konvertatsiyasini vaqtincha to'xtatish) faollashtirilishi kerak.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi PF-6079-son⁶li "Raqamli O'zbekiston -2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.09.2018 yildagi PQ-3926-son⁷ Qarori (2018) "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi.
3. Akartuna, E. A., Johnson, S. D., & Thornton, A. (2022). Preventing the money laundering and terrorist financing risks of emerging technologies: An international policy Delphi study. *Technological Forecasting and Social Change*, 179, 121632.
4. Carapella, Francesca, Arazi Lubis, and Alexandros Vardoulakis (2026). "Stablecoins in 2025: Developments and Financial Stability Implications," FEDS Notes. Washington: Board of Governors of the Federal Reserve System, April 08, 2026, <https://doi.org/10.17016/2380-7172.4020>
5. Choi et al., «Stablecoins and Central Bank Digital Currency: Challenges and Opportunities,» *Oxford Research Encyclopedia of Economics and Finance*, 2024. DOI: 10.1093/acrefore/9780190625979.013.910
6. Clemens M. Graf von Luckner, Robin Koepke, and Silvia Sgherri. «Crypto as a Marketplace for Capital Flight», *IMF Working Papers* 2024, 133 (2024), accessed 5/24/2026, <https://doi.org/10.5089/9798400279348.001>
7. International Monetary Fund. «Central Bank Digital Currency: Further Navigating Challenges and Risks», *Policy Papers* 2025, 041 (2025), accessed 5/26/2026,
8. Schäfer, S., & Read, O. (2020). Financial and monetary stability aspects of global stablecoins. *Credit and Capital Markets—Kredit und Kapital*, (2), 159-185

6 <https://lex.uz/docs/-5030957>

7 <https://lex.uz/ru/docs/-3891616>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>